



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS
**GENDER TENGLIGI: AYOLLAR HUQUQLARING DOLZARB
MASALALARI.**

Nurullayeva Nazirabonu Nasullayevna

Buxoro yuridik texnikumi Davlat huquqiy faoliyati 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola ayol va xotin-qizlarimizning haq-huquqlari ularning jamiyatdagi òrni siyosat va ijtimoiy hayotda qanchalik darajada òrniga egaligi va ularni huquqlarini himoya qilishda qanday qonunlar borligi haqida ma'lumot*

Kirish sòzlar: *Gender tengligi, siyosat, ijtimoiy, huquq, konvensiya, inson huquqlari, jamiyat, xalqaro munosabatda*

Asosiy qism: Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog'i: erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

O'zbekistonda gender tengligi tahriri.

O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan.

O'zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida“gi Qonuni qabul qilingan. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

1995 yilda Pekinda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollar bo'yicha 6-konferensiyasidan boshlab vakillik lavozimlarida ayollar sonini ko'paytirish uchun ijobiy harakatlar siyosatini qabul qilish tavsiya etilgan kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tenglikni ta'minlash uchun 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lishi kerak:

Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish.

Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash.

«Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish

O'zbekistonda ayollar huquqlari Konstitutsiya va davlat siyosati darajasida himoyalangan, gender tenglikni ta'minlash, ularning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashishga qaratilgan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, boshqaruv lavozimlarida ularning ulushini oshirish, "Ayollar daftari" orqali manzilli yordam ko'rsatish, shuningdek, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishni nazarda tutadi. Huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, gender tengsizlik, zo'ravonlik, ta'lim va sog'liqni saqlashda teng imkoniyatlar yaratish kabi global muammolar O'zbekistonda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Huquqiy himoya va qo'llab-quvvatlash

"Ayollar daftari": Muhtoj ayollarga manzilli yordam berish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun shaffof mexanizm yaratilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonuniy va institutsional baza yaratishga katta e'tibor qaratmoqda, ammo bu sohada hali ham ko'p ishlar qilinishi zarur.

CEDAW xotin-qizlarning fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlariga bag'ishlangan xalqaro qonun sifatida e'tirof etilgan. Bugungi kunda CEDAW 189 ta davlat, shu jumladan O'zbekiston tomonidan 1995-yilda ratifikatsiya qilingan. BMTning Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish qo'mitasining tashkil etilishi ham muhim voqea bo'lib, ishtirokchi-davlatlarga gender tenglikka erishish doirasida milliy qonunchilik manbalarini mustahkamlashga ko'maklashadi.

CEDAWning asosiy prinsip va qoidalari milliy qonunchiligimizda va yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Xususan, Konstitutsiyaning 42 va 58-moddalarida ayollarning mehnat huquqlari buzilishining oldini olish, ular uchun munosib turmush va ish sharoitlari yaratish hamda xotin-qizlarga jamiyatning barcha jabhalarida erkaklar bilan teng huquq va imkoniyatlar ta'minlanishi nazarda tutilgan. Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga oid 40 dan ziyod normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Bu o'rinda, avvalo,

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida", "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" hamda "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi yangi qonunlar haqida so'z bormoqda.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish va ularning davlat funksiyalarini tartibga solishga qo'shgan hissasini oshirish bo'yicha faol ishlar o'z samaralarini amalda namoyon etmoqda. Xususan, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga yetkazildi. Yangi saylangan Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi, Senat a'zolarining 27 foizini ayollar tashkil etmoqda. Tadbirkor ayollar safi 37 foizga ko'paydi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan qizlar soni 6 barobar ko'payib, ta'lim olayotgan talabalarning yarmidan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etmoqda.

Shuningdek, o'tgan yilda yurtimiz Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun" indeksida 48 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 91-o'rinni egalladi. O'zbekiston ayollar huquqlari va gender tenglik sohasida eng katta natijalarga erishgan 5 ta mamlakatdan biri sifatida qayd etildi.

1. Xotin-qizlarning ish bilan band bo'lish sohasidagi huquqlari kamsitilishini bartaraf etish, ayni vaqtda erkaklar bilan ayollarning teng huquqlarini ta'minlash maqsadida ishtirokchi-davlatlar barcha tegishli choralarni, jumladan, quyidagi huquqlarni ta'minlash choralari ko'radilar:

- a) barcha insonlarning ajralmas huquqi sifatida mehnat qilish huquqi;
- b) ishga yollashda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lish, shu bilan birga ishga yollashda bir xil tanlash mezonlarini qo'llash huquqi;
- c) kasb yoki ish turini erkin tanlash, lavozim bo'yicha ko'tarilish va ish bilan band etish kafolatiga ega bo'lish, shuningdek, shogirdlik, yuqori darajadagi kasb bo'yicha tayyorgarlik va muntazam suratda malaka oshirishni o'z ichiga olgan holda mehnat qilishning barcha imtiyozlari va shart-sharoitlaridan to'liq foydalanish, kasb bo'yicha tayyorgarlik va qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqi;
- d) imtiyozlar olishni ham hisobga olgan holda teng mukofotlanish, bir xil qimmatga ega bo'lgan mehnatga nisbatan teng sharoitlarga, shuningdek, ish sifatini baholashga teng yondashish huquqi;
- e) jumladan, nafaqaga chiqish, ishsiz qolish, kasallik, nogironlik, qarilik va mehnat qobiliyatini yo'qotishdan iborat boshqa holatlarda ijtimoiy ta'minot huquqi shuningdek, haq to'lanadigan ta'til huquqi;
- f) sog'liqni saqlash va xavfsiz mehnat sharoitlarga ega bo'lish, shuningdek, naslni davom ettirish vazifasini saqlab qolish huquqi.

2. Ayollarning turmushga chiqmaganligi yoki onaligi sababli kamsitilishining oldini olish va ularga mehnat qilishning samarali huquqlarini kafolatlash maqsadida, ishtirokchi-davlatlar quyidagilarni amalga oshirish uchun tegishli choralarni ko'radilar:

- a) homiladorlik sababli ishdan bo'shatishni yoki homiladorlik va tug'ruq bo'yicha ta'tilga chiqarishni yoxud oilaviy ahvol tufayli kamsitishni sanksiyalar qo'llanish tahdidi ostida man qilish;





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

b) oxirgi ish joyini, lavozimini yoki ijtimoiy nafaqalarini yo'qotmagan holda homiladorlik va tug'ruq bo'yicha haqi to'lanadigan ta'tillar yoki taqqoslama ijtimoiy nafaqalar, to'lanadigan ta'tillar joriy etish;

c) ota-onalar oilaviy burchlarining bajarilishini mehnat faoliyati va jamoat hayotdagi ishtiroki bilan birga qo'shib olib borish imkonini yaratish uchun, jumladan, bolalarni tarbiya qilish muassasalari tarmog'ini kengaytirish yo'li bilan qo'shimcha zarur ijtimoiy xizmat ko'rsatishni rag'batlantirish;

d) ayollar homiladorligi davrida ularning salomatligi uchun zararli deb isbotlangan mehnat turlarida alohida himoyalashni ta'minlash.

3. Mazkur moddada o'z aksini topgan huquqlarni himoya qilishga taalluqli qonunchilik ilmiy-texnikaviy bilimlar asosida vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqiladi, shuningdek, zaruratga qarab qaytadan ko'riladi, bekor qilinadi yoki kengaytiriladi.

Xulosa: Ayollar erkaklar bilan teng sharoitlarda hech qanday kamsitishlarsiz, milliy qonunchiligda belgilangan tartibda barcha davlat va jamoat xizmati lacozimlarini egallash va ularni amalga oshirish huquqiga ega.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Ayollarning siyosiy huquqlarini himoya qilish to'grisidagi konvensiya. <https://saylov.uz/storage/international-standards/AYOLLARNING%20SIYOSIY%20HUQUQLARI%20TO%E2%80%98G%E2%80%98RISIDA%20KONVENSIYA.pdf>

2 .Ayollar huquqlari. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ayollar_huquqlari

3. Inson huquqlari. <http://nhrc.uz/oz/news/m14750>

4. Inson huquqlari buyicha milliy markaz <https://uzmarkaz.uz/news/ozbekistonda-ayollar-huquqlarini-himoya-qilishning-huquqiy-asoslari>

5. Ayollar huquqlarini himoya qilish mexanizmlar <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m11296>

6. AYOLLAR HUQUQLARI KONVENSIYASI 11 – MODDA https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://uz.wikipedia.org/wiki/Ayollarni_kamsitishning_barcha_shakllariga_barham_berish_to%25CA%25BBg%25CA%25BBisidagi_konvensiya&ved=2ahUKEwjnj5jhh96RAxWgPhAIHX7yFUIQFnoECFAQAQ&sqi=2&usg=AOvVaw0FCSVr1PGQUadGufqyvIGv

